V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

ELMURODOV ALIMARDON NURIDDINOVICH

REAKSIYA DIFFUZIYA TIPIDAGI PARABOLIK TENGLAMALAR SISTEMASI UCHUN KO‘P FAZALI NOMA’LUM CHEGARALI MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika (fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

UDK: 517.956.4

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

ELMURODOV ALIMARDON NURIDDINOVICH

REAKSIYA DIFFUZIYA TIPIDAGI PARABOLIK TENGLAMALAR SISTEMASI UCHUN KO‘P FAZALI NOMA’LUM CHEGARALI MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika (fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida №B2021.4.PhD/FM307 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (http://kengash.mathinst.uz/) va "ZiyonNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Taxirov Jozil Ostanovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Ashurov Ravshan Radjabovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Apakov Yusupjon Pulatovich fizika-matematika fanlari doktori, professor
Etakchi tashkilot:	**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «4» iyul soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99871) 207-91-40, website: www.mathinst.uz, e-mail: kengash@mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (162 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99871) 207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «19» iyun kuni tarqatildi.
(2023 yil «19» iyundagi 2 raqamli reestr bayonnomasi).

U.A. Rozikov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A.A. Azamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Noma'lum chegarali diffuzion-ko'chish hodisalari sanoat, biologiya, tibbiyot, atrof-muhit va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan ko'p sonli jarayonlarda sodir bo'ladi. Mediko-biologik va ekologik jarayonlarning ko'plab modellari qurilgan va bunda biologik populyatsiyalar tabiati, raqobat modellari, epidemiya tarqalishi va ekolik muammolar muhim kasb etadi. Noma'lum chegarali masalalarning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, sohalar avvaldan noma'lum bo'lib, ular fazali o'tishni boshqaruvchi aniq fizik qonuniyatlar va boshqa shartlardan kelib chiquvchi, noma'lum chegaraviy masalaning qismi sifatida aniqlanishi lozim.

Hozirda reaksiya diffuziya tipidagi parabolik tenglamalar uchun noma'lum chegarali masalalarning bir qiymatli yechilishi ma'lum. Lekin reaksiya- diffuziya tipidagi parabolik tenglamalar sistemasi uchun ko'p fazali noma'lum chegarali masalalar yechimlarini qurish va noma'lum chiziqlar tabiatini tahlil qilish masalalari hal qilinmagan. Shuning uchun ma'lum natijalarni quyidagi yo'nalishlarda umumlashtirish talab etiladi: tenglamalar sistemalarida chiziqsiz diffuziya va advektiv ko'chish holatlarini aniqlash; masala yechishning yangi usullarini taklif etish va yangi modellar qurish. Shu bois yangi modellarni ishlab chiqish, rivojlantirish va ishlab chiqilgan usullar yordamida Mediko-biologik va ekologik jarayonlarni monitoring qilish va basharotlash maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda innovatsion xarakterdagi fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqlarga ega bo'lgan dolzarb yo'nalishlariga qiziqish ortib bormoqda. Matematika fanlarining ustuvor yo'nalishlari, ya'ni differensial tenglamalar va matematik fizika, amaliy matematika va matematik modellashtirish bo'yicha xalqaro talablar darajasida ilmiy natijalarga erishish Matematika institutining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlaridan biridir[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909- son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi va 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan

[1]O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi № PQ-4387-son qarori

vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Zamonaviy amaliy xarakterdagi fanning paydo bo‘lishi asosan suyuq va qattiq fazalarning birgalikdagi evolyutsiyasini tasvirlaydigan mashhur Stefan masalasi bilan bog‘liq. 1970 yillardan boshlab tobora ko‘proq modellarni ishlab chiqishda uzluksiz taraqqiyot kuzatildi va ularning ba’zilari noma’lum chegarali masalalari nazariyasida klassikaga aylandi. Noma’lum chegarali masalalar nazariyasi asoslari (asosan parabolik va elliptik tenglamalar uchun) A.Fridman, L.Rubinshteyn, J.Kannon, J.Xill, U.Kayner (AQSH), A.Fazano, M. Primecerio (Italiya), O. Oleynik, S. Kamenomostkaya, A. Meyrmanov, I. Danilyuk (Rossiya) va boshqalarning ishlarida ishlab chiqilgan va rivojlantirilgan.

So‘nggi o‘n yilliklarda biz turli sohalardan kelib chiqadigan, noma’lum chegarali muhim mavzularni o‘z ichiga oluvchi predmet sohasining tez kengayib borishini kuzatmoqdamiz. Noma’lum chegarali muammolar turli jihatlardan (sonli va nazariy) jadal o‘rganilmoqda, mavzu qo‘llanilish uchun doimiy yangi asoslarni topmoqda va zamonaviy fundamental nazariy muammolar kelib chiqishi davom etmoqda. Bu natijalar, yangi analitik va sonli usullarni ishlab chiqishni hamda o‘ta murakkab masalalarni yechish uchun mavjud algoritm va matematik apparatlarni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Hozirgi kunda dunyoning ko‘pgina yetakchi ilmiy markazlarida noma’lum chegarali diffuzion-logistik modellarni qurish va tadqiq etish bo‘yicha faol ilmiy ishlar olib borilmoqda va ular turli xil ekologik, mediko-biologik va shunga o‘xshash jarayonlarni matematik modellashtirishda keng qo‘llanilmoqda.

Ko‘p fazali masalalar ko‘pincha amaliy muammolarda, masalan, neft sanoatida paydo bo‘ladi. Yana bir muammo - bu bir nechta biologik turlar o‘rtasidagi raqobatni modellashtiradigan reaksiya-diffuziyaning logistik muammolaridagi bo‘linish jarayonlari va Lotka-Volterra modelining modifikatsiyalaridir. Bu muammolar nazariyasi hali boshlang‘ich bosqich holatidadir.

Ushbu yo‘nalishlarda asosiy natijalar quyidagi mualliflar tomonidan olingan: A.Friedman, C.Rao, Y.Du, Y.Tao, X.Chen, Z.Lin, C.Li, M.Wang va boshqalar (1-bobga qarang).Biz bu oqimga qo‘shilishga harakat qilmoqdamiz.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti FA Matematika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi FA-Atex-2018-149 “Yer usti atmosferasi va ko‘p qatlamli muhitlarda zararli moddalarning diffuziyasi va konvektiv ko‘chishini tadqiq qilish uchun samarador hisoblash algoritmlari va dasturiy majmualarni yaratish” (2018-2020) amaliy loyihasi bo‘yicha va YOT-F4-85 “Biologiya va ekologiyaning zamonaviy muammolarini tadqiq etish uchun nochiziqli matematik modellarni va samarador hisoblash algoritmlarni ishlab chiqish” (2017-2020 yillar) fundamental loyihasi, shuningdek,

“Mediko-biologik va fizik jarayonlarning matematik modellarini ishlab chiqish va takomillashtirish, tadqiqot, monitoring va prognozlashning matematik usullarini qurish” Matematika instituti ilmiy tadqiqot yo‘nalishi doirasida tadqiqot rejasiga muvofiq amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi parabolik tenglamalar va reaksiya-diffuziya-adveksiya tipidagi sistemalar uchun noma’lum chegarali ko‘p fazali logistik masalalari nazariyasini qurish va rivojlantirishdir.

Tadqiqotning vazifalari:

lokal konkurent yashash muhitiga yangi turning kirib kelishini ifodalovchi, kvazichiziqli tenglamalar sistemasi uchun reaksiya-diffuziya-adveksiya raqobat masalasi va uch fazali ekologiya masalasini tadqiq etish;

noma’lum chegaralar turlarning tarqalish frontini ifodalovchi, invaziv yirtqich turlarning tarqalishini modellashtiruvchi Lesli-Gauer tipidagi yirtqich-o‘lja diffuzion modellarini tadqiq etish;

fazali o‘tish chegaralari noma’lum bo‘lgan reaksiya-diffuziya tipidagi parabolik tenglamalar uchun ikki fazali masalalarni o‘rganish;

masalalarni yechish usullarini ishlab chiqish, aprior baholar o‘rnatish, yechimning yagonaligi va mavjudligi teoremalarini isbotlash, taqqoslash prinsipini ta’minlash, noma’lum chegaraning tabiatini o‘rganish.

Tadqiqot ob’ekti. Ekologo-epidemiologik va mediko-biologik jarayonlarning noma’lum chegarali turli xil matematik modellaridan iborat.

Tadqiqot predmeti Aprior baholar o‘rnatish muammolari, yechimning yagonalik va mavjudlik teoremalarining isboti, taqqoslash teoremalarining isboti, shuningdek qidirilayotgan funksiyalarning sifat xossalarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida matematik va funksional tahlilning usullari, differensial tenglamalar va matematik fizika, matematik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

lokal konkurent yashash muhitiga yangi turning kirib kelishini ifodalovchi, kvazichiziqli tenglamalar sistemasi uchun reaksiya-diffuziya-adveksiya raqobat masalasini yechish uchun Gyolder fazolari normalarida aprior baholarni olish usuli ishlab chiqilgan va ular asosida masala yechimining mavjudligi isbotlangan;

suv yuzasiga neft tarqalishi dinamikasining noma’lum chegarali uch fazali matematik modeli qurilgan va Shauder tipidagi aprior baholar o‘rnatilib, ular asosida masalaning bir qiymatli yechilishi isbotlangan;

noma’lum chegara turlar fronti kengayishini ifodalovchi, yirtqichlarning invaziv turlarining tarqalishini modellashtiruvchi Lesli-Gauer tipidagi yirtqich-o‘lja logistik -diffuzion modeli yechimining mavjudligi va yagonaligi teoremalari isbotlangan;

fazali o‘tish chegaralari noma’lum bo‘lgan reaksiya-diffuziya tipidagi parabolik tenglamalar uchun ikki fazali masalalarning bir qiymatli yechilishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

parabolik tenglamalar va reaksiya-diffuziya tipidagi sistemalar uchun noma’lum chegarali ko‘p fazali masalalar ko‘rinishidagi takomillashtirilgan

matematik modellar, shuningdek, taklif qilingan tadqiqot usullari turli xil biologik va ekologik jarayonlarni o‘rganishda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik va funksional analiz usullari, differensial tenglamalar va matematik fizika, matematik modellashtirish usullari va zamonaviy matematikaning boshqa yangi natijalaridan foydalangan holda matematik yondashuvlar yordamida amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ulardan differensial tenglamalar nazariyasi va matematik fizikada, noma’lum chegarali masalalar nazariyasida hamda turli biologik va ekologik jarayonlarning matematik modellarini qurishda foydalanish mumkin.

Natijalarning amaliy ahamiyati biotibbiyot, fizik-kimyoviy va ekologik jarayonlarning modellarini qurish va o‘rganishda qo‘llash imkoniyati bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Reaksiya diffuziya tipidagi parabolik tenglamalar sistemasi uchun ko‘p fazali noma’lum chegarali masalalar bo‘yicha olingan natijalar asosida:

reaksiya-diffuziya tipidagi nochiziqli parabolik tenglamalar sistemasi uchun noma’lum chegarali modelidan YOT-Ftex-2018-149 raqamli “Nochiziqli chegaraviy shartlar bilan tavsiflangan ikki komponentali muhitlarda chiziqli bo‘lmagan filtrlash jarayonlarini matematik modellashtirish” mavzusidagi fundamental loyihada ikki komponentali muhitlarda filtratsiya sistemalarining avtomodel yechimlarini qurishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetning 2022 yil 17 maydagi 04/11-2821728-22-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi nochiziqli chegaraviy shartlari bo‘lgan ikki komponentali muhitlardagi filtrlash tizimlarining avtomodel yechimlari va ularning asimptotikalarini qurish imkonini bergan;

reaksiya-diffuziya tipidagi parabolik tenglamalar uchun ko‘p fazali noma’lum chegarali masala yechimidan FA-Atex-2018-414 raqamli “Boyitish kombinatlarida energiya sarfini pasaytiruvchi chiqindi mahsulotlari gidrotransporti texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi fundamental loyihada tog‘-kon va metallurgiya korxonalarida quvurlar orqali ko‘p fazali muhitlar oqimini o‘rganishda qo‘llanilgan. (Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutinng 2023 yil 22 maydagi №376-3 -sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi fiziko-mexanik jarayonlarning har xil murakkab qonuniyatlarini o‘rganish va yangi optimal algoritmlar qurish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan, 6 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari (PhD) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 1 tasi xorijiy va 5 tasi O‘zMJa nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Nochiziqli parabolik tenglamalar va noma’lum chegarali masalalar nazariyasidan ba’zi ma’lumotlar”** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya natijalarini isbotlashda foydalanilgan asosiy tushunchalar va o‘rganishda zarur bo‘lgan bir qator ma’lum faktlar keltirilgan.

Dissertatsiyadagi noma’lum chegarali barcha masalalar nochiziqli bo‘lganligi uchun ilmiy tadqiqotimizning asosiy maqsadi – yechimlar uchun aprior baholar o‘rnatish, ular asosida chegaraviy masalalarning bir qiymatli yechiluvchanligini isbotlash va noma’lum chegaralar tabiatini o‘rganishdir.

Dissertatsiyaning “**Biologiya va ekologiya masalalarida noma’lum chegarali reaksion-diffuzion modellar**” deb nomlangan ikkinchi bobi lokal konkurent yashash muhitiga yangi turning kirib kelishini ifodalovchi, kvazichiziqli tenglamalar sistemasi uchun reaksiya-diffuziya-adveksiya raqobat masalasi va uch fazali ekologiya masalasini tadqiq etishga bag‘ishlangan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida noma’lum chegaraga ega bo‘lgan chegaraviy masala qaraladi: Quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $s(t)$, $u(t,x)$, $v(t,x)$ funksiyalar topilsin

$$\begin{cases} a(u)u_t - d_1u_{xx} - k_1u_x = u(a_1 - b_1u - c_1v), \quad 0 < t \le T, \quad 0 < x < s(t), \\ b(v)v_t - d_2v_{xx} - k_2v_x = v(a_2 - b_2u - c_2v), \quad 0 < t \le T, \quad 0 < x < l, \\ u(0,x) = u_0(x), \quad 0 \leqslant x \leqslant s_0 = s_0 < l, \; v(0,x) = v_0(x), \quad 0 \leqslant x \leqslant l, \\ u_x(t,0) = v_x(t,0) = v(t,l) = 0, \quad 0 < t \le T, \\ \dot{s}(t) = -\mu u_x(t,s(t)), t > 0, \end{cases} \tag{1}$$

bu yerda $x = s(t)$ noma’lum chegara $u(t,x)$ va $v(t,x)$ bilan birgalikda aniqlanadi; a_i, b_i, c_i, d_i, $k_i (i = 1,2)$ va μ lar berilgan musbat konstantalar.

Biosig‘im koeffitsientlari $a(u)$, $b(v)$ va $u_0(x)$, $v_0(x)$ funksiyalar uchun silliqlik va musbatlik shartlari bajarilgan.

Bu model populyatsiya zichligi u bo‘lgan yangi turning v mahalliy konkurentning yashash muhitiga qanday tarqalishini ifodalaydi.

Paragrafning asosiy natijasi (1) masalaning klassik yechimining global mavjudligini aniqlash va yechimning tabiatini o‘rganish. Aralash ikki fazali tenglamalar uchun noma’lum chegarasi bo‘lgan yangi sinf masalalari uchun Shauder tipidagi aprior baholarni o‘rnatish usuli taklif etiladi. Taqqoslash teoremasi isbotlangan.

1-lemma. *$s(t)$, $u(t,x)$, $v(t,x)$ funksiyalar (1) masalaning yechimlari bo‘lsa, u holda quyidagi*

$$0 < u(t,x) \leqslant \max\left\{\frac{a_1}{b_1}, \| u_0 \|_\infty\right\} = M_1, \quad 0 < t \leqslant T, \quad 0 < x < s(t);$$

$$0 < v(t,x) \leqslant \max\left\{\frac{a_2}{c_2}, \| v_0 \|_\infty\right\} = M_2, \quad 0 < \dot{s}(t) \leqslant M_3, \quad 0 < t \leqslant T,$$

tengsizliklar o‘rinli va M_3 faqat berilganlarga bog‘liq.

Lemma maksimum prinsipi va taqqoslash teoremasi yordamida isbotlangan.

Aprior baholar o‘rnatish uchun birinichi masalada quyidagicha $t = t$, $y = \dfrac{x}{s(t)}$ almashtirish kiritamiz. U holda D sohaga $\Omega = \{(t,y): 0 < t < T, 0 < y < 1\}$ soha mos keladi, $U(t,y) = u(t,x)$, $V(t,y) = v(t,x)$ chegaralangan funksiyalar esa quyidagi masalalarning yechimlaridan iborat bo‘ladi

$$\begin{cases} U_t = A_1(s(t))U_{yy} + F_1(U,V,U_y), & (t,y) \in \Omega, \\ U(0,y) = U_0(y), & 0 \le y \le 1, \\ U_y(t,0) = 0, & 0 \le t \le T, \\ U(t,1) = 0, & 0 \le t \le T, \end{cases} \tag{2}$$

$$\begin{cases} V_t = A_2(s(t))V_{yy} + F_2(U,V,V_y), & (t,y) \in Q, \\ V(0,y) = V_0(y), & 0 \le y \le l, \\ V_y(t,0) = 0, & 0 \le t \le T, \\ V(t,l) = 0, & 0 \le t \le T, \end{cases} \tag{3}$$

bu yerda koeffisientlar tushunarli.

1-teorema. *$U(t,y)$ funksiya $\bar{\Omega}$ sohada U_y xususiy hosilasi bilan birgalikda uzluksiz, $\bar{\Omega}$ da (2) masalaning shartlarini qanoatlantirsin. Bundan tashqari $\sup\limits_{\bar{\Omega}} |U_{yy}| < +\infty$ bo‘lsin. U holda $|U_y(t,y)| \le M_4(M_1, M_2, A_{10}, \delta)$, $(t,y) \in \Omega^\delta$, bo‘ladi.*

Agar $U|_{\Gamma(t=0,y=0,y=1)} = 0$ bo‘lsa, u holda $(t,y) \in \bar{\Omega}$ uchun $|U_y(t,y)| \le M_4(M_1, M_2, A_{10})$, bo‘ladi, bu yerda $A_{10} = \min\limits_{\bar{Q}} A_1$, Γ – parabolik chegara.

2-teorema. *$\bar{\Omega}$ sohada uzluksiz $U(t,y)$ funksiya* (2) *masalaning shartlarini qanoatlantirsin. Faraz qilaylik uzluksiz $A_1(t,s(t),U)$, $F_1(U,V,U_y)$ funksiyalar $(t,y) \in \bar{\Omega}$, $|U| \le M_1$, $|V| \le M_2$ va ixtiyoriy U_y uchun $\dfrac{|F_1(U,V,U_y)|}{A_1(t,s(t),U)} \le K_0(U_y^2 + 1)$, $K_0 > 0$, shartni qanoatlantirsin. Shu bilan birga $\{(t,y) \in \bar{\Omega}, |U| \le M_1, |V| \le M_2, |U_y| \le M_4\}$ sohada $A_1(t,s(t),U) \le A_{11}$ bo‘lsa, u holda*

$$|U|_{\frac{2}{3}}^{\Omega^\delta} \le M_5(M_1, M_2, A_{11}, K_0, \delta) \tag{4}$$

bo‘ladi. Bundan tashqari $U(t,y)$ *funksiya* $\bar{\Omega}$ *sohada* U_{ty}, U_{yy} *umumlashgan hosilalari kvadrati bilan jamlanuvchi bo‘lsin. U holda*

$$|U|_{1+\gamma}^{\Omega^\delta} \le M_6\left(M_1, M_2, A_{11}, A_{21}, K_0, \delta\right), \quad 0<\gamma<1, \tag{5}$$

bu yerda $A_{11} = \max_{\bar{\Omega}} A_1$, $A_{21} = \max_{\bar{Q}} A_2$.

Agar $U\big|_{\Gamma(t=0,y=0,y=1)} = 0$ *bo‘lsa,* (4)-(5) *baholar* $\bar{\Omega}$ *sohada o‘rinlidir.*

Teorema[1] ish natijalari yordamida isbotlangan.

Yechimning yagonaligini isbotlash uchun, biz noma’lum chegaraning yangi ko‘rinishni topamiz

$$\frac{d_1}{\mu}s(t) = \frac{d_1}{\mu}s_0 + k_1\int_0^t u(\eta,0)d\eta - \int_0^{s(\eta)} q(u)d\xi + \int_0^{s_0} q(u_0)d\xi + \iint_{D_t} f(u,v)d\xi d\eta, \tag{6}$$

Bu yerda $f(u,v) = u(a_1 - b_1u - c_1v)$.

3-teorema. *1-lemmaning shartlari bajarilsin. U holda* (1) *masalaning yechimi yagona bo‘ladi.*

Isbot. $s_1(t)$, $v_1(t,x)$, $u_1(t,x)$ va $s_2(t)$, $v_2(t,x)$, $u_2(t,x)$ funksiyalar (1) masalaning yechimlari, bundan tashqari, $y(t) = \min\left(s_1(t), s_2(t)\right)$, $h(t) = \min\left(s_1(t), s_2(t)\right)$ bo‘lsin. Keyin, (6) ni hisobga olgan holda, biz quydagini olamiz

$$\frac{d}{\mu}\left|s_1(t) - s_2(t)\right| \le k_1\int_0^t \left|u_1(\eta,0) - u_2(\eta,0)\right|d\eta + \int_0^{y(t)} \left|q(u_1(\eta,\xi)) - q(u_2(\eta,\xi))\right|d\xi +$$

$$+ \int_{y(t)}^{h(t)} \left|q(u_i(\eta,\xi))\right|d\xi + \int_0^t d\eta \int_0^{y(t)} \left|f(u_i,v_i)\right|d\xi + \int_0^t d\eta \int_{y(t)}^{h(t)} \left|f(u_1,v_1) - f(u_2,v_2)\right|d\xi, \tag{7}$$

bu yerda u_i, $v_i (i=1,2)$ lar $y(t)$ va $h(t)$ orasidagi yechim, ya’ni.

$$\left(u_i, v_i\right) = \begin{cases} \text{arap } s_2(t) < s_1(t) \text{ bo'lsa, } u_1(t,x), v_1(t,x), \\ \text{arap } s_1(t) < s_2(t) \text{ bo'lsa, } u_2(t,x), v_2(t,x), \end{cases} \quad f(u_i,v_i) = u_i(a_i - b_iu_i - c_iv_i).$$

1-lemmadan hosil qilamiz

$$\left|u_i(t,x)\right| \le N\left(y(t) - x\right), \left|u_1\left(t, y(t)\right) - u_2\left(t, y(t)\right)\right| \le N\left|s_1(t) - s_2(t)\right|.$$

Teorema maksimum prinsipi va taqqoslash teoremasi yordamida isbotlanadi.

Yechimning mavjudligi. Nochiziqli masalaning yechiluvchaligini isbotlash uchun nochiziqli tenglamalar nazariyasi turli teoremalaridan foydalanish mumkin, bunda klassik yechimning yagonalik teoremasi o‘rinli ekanligini hisobga olish lozim. Nochiziqli masalalarning barcha mumkin bo‘lgan yechimlari uchun $|\cdot|_{1+\alpha}^{Q}$ tipdagi aprior baholarning o‘rnatilganligi va chiziqli masalalar uchun Gyolder sinflaridagi mavjudlik teoremalari yordamida Lera-Shauder prinsipini qo‘llaymiz. Bunda sistemalar uchun mavjudlik teoremasi bitta tenglama holati uchun kabi isbotlanadi, chunki har bir tenglamani $u(t,x)$ va $v(t,x)$ funksiyalar uchun uzluksiz Gyolder koeffitsientli chiziqli tenglama sifatida qarash mumkin.

---

1 Кружков С. Н. Нелинейные параболические уравнения с двумя независимыми переменными. Тр.ММО., Т.16. 1967. С.~329-346.

4-teorema. *3 teoremalarning shartlari bajarilsin. U holda* (1) *masalaning* $D \subset Q$ *da* $u(t,x) \in C^{2+\gamma}\left(\bar{D}\right)$, $v(t,x) \in C^{2+\gamma}\left(\bar{Q}\right)$, $s(t) \in C^{1+\gamma}([0,T])$ *yechimi mavjud.*

Taqqoslash prinsipi. Umumlashgan taqqoslash prinsipi isbotlangan.

Quyidagi tasdiq (1) noma'lum chegarali masala bilan bog'liq taqqoslash prinsipidir. $Q_T \times J_1 \times J_2$ da (f,g) funksiyalari Gyolder bo'yicha uzluksiz va chegaralangan to'plam $J_1 \times J_2 \subset R^2$. $J_1 \times J_2$ to'plami (f,g) funksiyasining kvazimonotonikligiga qarab mos keladigan yuqori va quyi yechimlar bilan aniqlanadi.

Berilgan funksiyalar jufti $\underline{U} = (\underline{u}, \underline{v})$, $\bar{U} = (\bar{u}, \bar{v})$ uchun $[\underline{U}, \bar{U}] = \{U := (u,v) \in [C([0,T] \times [0,\infty))]^2 : (\underline{u}, \underline{v}) \le (u,v) \le (\bar{u}, \bar{v})\}$ deb belgilaymiz, bu yerda $(u_1, v_1) \le (u_2, v_2)$ mos ravishda $u_1 \le u_2$ va $v_1 \le v_2$. Agar fiksirlangan u uchun f funksiya v bo'yicha va fiksirlangan v uchun g funksiya u bo'yicha o'smaydigan bo'lsa, u xolda $(f,g) = (f(u,v), g(u,v))$ funksiyalar juftligi o'smaydigan kvazimonoton deb olinadi[1]; masalan (1) dagi $f = u(a_1 - b_1 u - c_1 v)$ va $g = v(a_2 - b_2 u - c_2 v)$ funksiyalar ta'rifni qanoatlantiradi.

2-lemma. (f,g) *kvazimonoton o'smaydigan va* $\left[\underline{U}, \bar{U}\right]$ *da Lipshits shartini qanoatlantiruvchi funksiya bo'lsin, bu yerda* $f(0,v) = g(u,0) = 0$. *Quyidagilar o'rinli bo'lsin:* $T \in (0,\infty)$, $\underline{s}, \bar{s} \in C^1([0,T])$, $\underline{u} \in C(\bar{D}_T^*) \cap C^{1,2}(D_T^*)$ *bilan* $D_T^* = \{(t,x) \in R^2 : t \in (0,T], x \in (0, \underline{s}(t))\}$, $\bar{u} \in C(\bar{D}_T^{**} \cap C^{1,2}(D_T^{**}))$, $D_T^{**} = \left\{(t,x) \in R^2 : t \in (0,T], x \in [0, \bar{s}(t))\right\}$, $\underline{v}$, $\bar{v} \in (L^\infty \cap C)([0,T] \times [0,\infty)) \cap C^{1,2}((0,T] \times [0,\infty))$ *va*

$$
\begin{gathered}
a(\bar{u})\bar{u}_t - d_1\bar{u}_{xx} - k_1\bar{u}_x \ge f(\bar{u}, \underline{v}), \quad 0 < t \le T, \quad 0 < x < \bar{s}(t), \\
a(\underline{u})\underline{u}_t - d_1\underline{u}_{xx} - k_1\underline{u}_x \le f(\underline{u}, \bar{v}), \quad 0 < t \le T, \quad 0 < x \le \underline{s}(t), \\
b(\bar{v})\bar{v}_t - d_1\bar{v}_{xx} - k_2\bar{v}_x \ge g(\underline{u}, \bar{v}), \quad 0 < t \le T, \quad 0 < x < l, \\
b(\underline{v})\underline{v}_t - d_1\underline{v}_{xx} - k_2\underline{v}_x \le g(\bar{u}, \underline{v}), \quad 0 < t \le T, \quad 0 < x < l, \\
\bar{u}_x(t,0) = \underline{v}_x(t,0) = 0, \quad \bar{u}(t, \bar{s}(t)) = 0, \quad \underline{v}(t,l) = 0, \\
\underline{u}_x(t,0) = \bar{v}_x(t,0) = \underline{u}(t, \underline{s}(t)) = \bar{v}(t,l) = 0, \quad 0 < t \le T, \\
\underline{s}'(t) \le -\mu\underline{u}_x(t, \underline{s}(t)), \quad \bar{s}'(t) \ge -\mu\bar{u}_x(t, \bar{s}(t)), \quad 0 < t \le T, \\
\underline{s}(0) \le s_0 \le \bar{s}(0), \, \underline{u}(0,x) \le u_0(x) \le \bar{u}(0,x), \quad 0 \le x \le s_0, \\
\underline{v}(0,x) \le v_0(x) \le \bar{v}(0,x), \quad 0 \le x \le l.
\end{gathered}
$$

(u,v,s) *funksiya* (1) *masalaning yagona yechimi bo'lsin, u holda umumiy ta'rifning yopiq sohalarida* $(0,T]$ *ichida* $s(t) \le \bar{s}(t)$, $u(t,x) \le \bar{u}(t,x)$, $v(t,x) \ge \underline{v}(t,x)$, $(0,T]$ *ichida* $s(t) \ge \underline{s}(t)$, $u(t,x) \ge \underline{u}(t,x)$, $v(t,x) \le \bar{v}(t,x)$ *bo'ladi.*

Vaqtning katta qiymatlarida yechimlarning tabiati haqida.

Biz $u(t,x)$ kuchsiz raqib bo'lgan holatni tekshiramiz, xususan:

[3] Pao C. V. Nonlinear Parabolic and Elliptic Equations. Plenum Press, New York, 1992. 728.

$$\frac{a_1}{a_2} < \min\left\{\frac{b_1}{b_2}, \frac{c_1}{c_2}\right\}. \qquad (8)$$

5-teorema. *Faraz qilaylik* (8) *shart bajarilsin* $v_0(x) \geqslant \delta > 0, \quad 0 \leqslant x \leqslant s_0,$ $\frac{\mu}{d_1} c_1 A_0 + s_0 < l$, *bu yerda* $A_0 > a(u) > a_0$. *U holda [0,l] da* $s_\infty < l$.

Ikkinchi bobi ikkinchi paragrafda neft va neft mahsulotlarining avariya holatida to‘kilishi bilan bog‘liq ekalogik muammo qaraladi.

Faraz $u(t,x), v(t,x)$ va $w(t,x)$ funksiyalar atmosferada, suvda va cho‘kmalardagi neft mahsulotlarining konsentratsiyasi bo‘lsin. Uchta fazaning har birida neft mahsulotlari konsentratsiyasini va fazalar aro qo‘zg‘aluvchan noma’lum chegaralarni aniqlash quyidagi chegaraviy masalaga keltiriladi: Quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $u(t,x),\ v(t,x),\ w(t,x),\ h(t),\ g(t)$ funksiyalar topilsin:

$$u_t = u_{xx} + c_1 u_x + u(a_1 - b_1 u), \qquad (t,x) \in D_1 \qquad (9)$$

$$v_t = v_{xx} + c_2 v_x + v(a_2 - b_2 v), \qquad (t,x) \in D_2 \qquad (10)$$

$$w_t - w_{xx} - c_3 w_x = w(a_3 - b_3 w), \qquad (t,x) \in D_3 \qquad (11)$$

$$u(0,x) = u_0(x), \qquad 0 \le x \le g_0 = g(0), \qquad (12)$$

$$v(0,x) = v_0(x), \qquad g_0 \le x \le h_0 = h(0), \qquad (13)$$

$$w(0,x) = w_0(x), \qquad h_0 \le x \le l, \qquad (14)$$

$$u_x(t,0) = u(t,g(t)) = v(t,g(t)) = v(t,h(t)) = w(t,h(t)) = w_x(t,l) = 0, \ 0 \le t \le T, \qquad (15)$$

$$\dot{g}(t) = -\mu u_x(t,g(t)) + \mu v_x(t,g(t)), \ \dot{h}(t) = \mu v_x(t,h(t)) - \mu w_x(t,h(t)), \ 0 \le t \le T. \qquad (16)$$

bu yerda $D_1 = \{(t,x): 0 < t \le T, 0 < x < g(t)\}$, $D_2 = \{(t,x): 0 < t \le T, g(t) < x < h(t)\}$, $D_3 = \{(t,x): 0 < t \le T, h(t) < x < l\}$.

$x = g(t)$ va $x = h(t)$ funksiyalar ifloslanishning tarqalish frontini ifodalaydi va konsentratsiyalar bilan birga aniqlanadi, $g_0, h_0, \mu, a_i, b_i, c_i \ (i = 1,2,3)$–musbat o‘zgarmaslar, c_i-ko‘chirish koeffitsienti, tenglamalardagi reaksiya-diffuziya hadlar kimyoviy va biologik oksidlanish hisobidan neft mahsulotlari konsentratsiyasining kamayish jarayonini ifodalaydi.

Ishning asosiy maqsadi konsentratsiya va D_2 soha yuzasini kamaytirishni ta’minlashdan iborat. Bu konsentratsiya uchun yuqori bahoni o‘rnatish va noma’lum chegaraning monotonligini o‘rnatish yo‘li bilan ta’minlanadi ($g(t)$-o‘sadi, $h(t)$-kamayadi). Keyinchalik masala yechimining yagonaligi va mavjudligi isbotlanadi.

Aprior baholar. Bu bo‘limda yechimning yagonaligi va global mavjudligini isbotlashda qo‘llaniladigan ba’zi aprior baholar o‘rnatiladi.

6-teorema. $c_2 \ge 1$ *bo‘lib,* $g(t), h(t), u(t,x), v(t,x), w(t,x)$ *funksiyalar* (9)-(16) *masalaning yechimlari bo‘lsin. U holda quyidagi tengsizliklar o‘rinlidir:*

$$0 < u(t,x) \le M_1, \ (t,x) \in D_1, \ 0 < v(t,x) \le M_2, \ (t,x) \in D_2, \ 0 < w(t,x) \le M_3, \ (t,x) \in D_3,$$

$$0 \le \dot{g}(t) \le M_4, \ \ D_1 \cup D_2, \ 0 \le -\dot{h}(t) \le M_5, \ D_2 \cup D_3,$$

bu yerda $M_i = \frac{a_i}{b_i}(i = 1,2,3)$, $M_j\,(j = 4,5)$ – *berilganlar bo'yicha aniqlanadi va bu o'zgarmaslar* T *ga bog'liq emas.*

Boshlang'ich aprior baholar o'rnatilgandan keyin, nochiziqli parabolik nazariya bo'yicha ma'lum natijalarni qo'llash mumkin. Qaralayotgan masalaning uch fazaliligi va o'tishning noma'lum qo'zg'aluvchan chegaraning mavjudligi bilan bog'liq asosiy qiyinchiliklar kelib chiqadi.

Masalaning har bir tenglamasi uchun o'zgaruvchilarni almashtirishdan foydalanib, fiksirlangan sohada alohida kvazichiziqli mos tenglamalar uchun masalalarni hosil qilamiz. Yuqorida o'rnatilgan baholarga asosan bu tenglamalar koeffitsientlari chegaralangan funksiyalar bo'ladi.

Masalan $t = t$, $y = \frac{2x - l - h(t)}{l - h(t)}$ yangi o'zgaruvchilarda D_3 soha $Q = \{(t,y): 0 < t < T, -1 < y < 1\}$ sohaga mos keladi, $W(t,y) = w(t,x)$ funksiya uchun masala quyidagicha bo'ladi

$$\begin{cases} W_t - A_3(t,h(t))W_{yy} + B_3\left(t,h(t),\dot{h}(t),W,W_y\right) = 0, & (t,y) \in Q_3, \\ W\left(0, \frac{l + h_0 + (l - h_0)y}{2}\right) = w_0\left(\frac{l + h_0 + (l - h_0)y}{2}\right), & -1 \le y \le 1, \\ W_y(t,1) = 0, & 0 \le t \le T, \\ W(t,-1) = 0, & 0 \le t \le T, \end{cases} \tag{17}$$

$t = t$, $y = \frac{2x - h(t) - g(t)}{h(t) - g(t)}$ yangi o'zgaruvchilarda D_2 soha $Q = \{(t,y): 0 < t < T,\ -1 < y < 1\}$ sohaga mos keladi, $V(t,y) = v(t,x)$ funksiya uchun masala quyidagicha bo'ladi

$$\begin{cases} V_t - A_2(t,h(t),g(t))V_{yy} - B_2\left(t,h(t),g(t),\dot{h}(t),\dot{g}(t),V,V_y\right) = 0, & (t,y) \in Q_2, \\ V\left(0, \frac{h_0 + g_0 + (h_0 - g_0)y}{2}\right) = V_0\left(\frac{h_0 + g_0 + (h_0 - g_0)y}{2}\right), & -1 \le y \le 1, \\ V(t,1) = 0, & 0 \le t \le T, \\ V(t,-1) = 0, & 0 \le t \le T, \end{cases} \tag{18}$$

$t = t$, $y = \frac{2x - g(t)}{g(t)}$ yangi o'zgaruvchilarda D_1 soha $Q = \{(t,y): 0 < t < T,\ -1 < y < 1\}$ sohaga mos keladi, $U(t,y) = u(t,x)$ funksiya uchun masala quyidagi ko'rinishni oladi

$$\begin{cases} U_t - A_1(t,g(t))U_{yy} - B_1(t,g(t),\dot{g}(t),U,U_y) = 0, & (t,y) \in Q_1, \\ U\left(\frac{g_0(y+1)}{2}, 0\right) = u_0\left(\frac{g_0(y+1)}{2}\right), & -1 \le y \le 1, \\ U(t,1) = 0, & 0 \le t \le T, \\ U_y(t,-1) = 0, & 0 \le t \le T, \end{cases} \tag{19}$$

Noma’lum chegaralar uchun shartlar quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\dot{g}(t) = -\frac{2\mu}{g(t)}U_y(t,1) + \frac{2\mu}{h(t)-g(t)}V_y(t,-1), \quad t>0,$$

$$\dot{h}(t) = \frac{2\mu}{h(t)-g(t)}V_y(t,1) - \frac{2\mu}{l-h(t)}W_y(t,-1), \quad t>0.$$

(17), (18) va (19) masalalardagi barcha tenglamalar uchun paraboliklik shartlari va kichik hadlarining bo‘ysunish sharti bajarilib, ushbu[1] ish natijalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashga imkon beradi. Teoremani $V(t,y)$ funksiya uchun keltiramiz.

$U(t,y)$, $W(t,y)$ funksiyalar uchun shunga o‘xshash natijalar o‘rinlidir.

7-teorema. *Faraz* $V(t,y)$ *funksiya* V_y *hosilasi bilan birgalikda* $\bar{Q}$ *sohada uzluksiz va* Q *sohada* (18) *masalaning shartlarini qonoatlantirsin, hamda* $\sup_{\bar{Q}}|V_{yy}|<+\infty$ *bo‘lsin. U holda* $|V_y(\tau,y)|\le M_6(M_2,A_{10},\delta)$, $(\tau,y)\in Q^\delta$ *bo‘ladi. Agar* $V|_{\Gamma(t=0,y=-1,y=1)}=0$ *bo‘lsa,* $(\tau,y)\in\bar{Q}$ *uchun* $|V_y(t,y)|\le M_6(M_2,A_{10})$, *tengsizlik o‘rinli bo‘ladi, bunda* $A_{10}=\min_{\bar{Q}}A_2$, $\Gamma-$ *parabolik chegara.*

8-teorema. *6-teoremaning barcha shartlari bajarilsin.* $\overline{Q_2}$ *sohada uzluksiz* $V(\tau,y)$ *funksiya* (18) *masalaning shartlarini qonoatlantirsin. Faraz qilaylik,* $(\tau,y)\in\overline{Q_2}$, *uchun* $A_2(h(\eta),g(\eta))$, $B_2(h,g,V,V_y)$ *uzluksiz funksiyalar,* $|V|\le M_2$ *va ixtiyoriy* V_y *quyidagi shartlarni qanoatlantirsin*

$$\frac{|B_2(h,g,V,V_y)|}{A_2(h,g)} \le K_1\left(V_y^2+1\right), \quad K_1>0.$$

Bundan tashqari, agar $\{(\tau,y)\in\overline{Q_2}, |V|\le M_2, |V_y|\le P_{01}\}$ *sohada* $A_2(g,h)\le a_{11}$ *bo‘lsa, u holda*

$$|V|_{\frac{2}{3}}^{Q_2^{2\delta}} \le C(M_2,a_{10},K_1,\delta). \tag{20}$$

Agar $V(\tau,y)$ funksiya $\overline{Q_2}$ sohada kvadrat bilan jamlanuvchi $V_{\tau y}$, V_{yy} umumlashgan hosilaga ega bo‘lsa, u holda

$$|V|_{1+\alpha}^{Q_2^{2\delta}} \le K_2(M_2,a_{11},P_{01},K_1,\delta), \quad 0<\alpha<1, \tag{21}$$

bo‘ladi, bu yerda $a_{11}=\max_{D_2}A_2(h,g)$. Agar $V|_\Gamma=0$ bo‘lsa, u holda (20)-(21) baholar $\overline{D_2}$ sohada ham o‘rinli.

Xuddi ikkinchi bob birinchi paragrafdagidek kabi yechimning mavjudligi va yagonalik teoremasi isbotlanadi.

Dissertatsiyaning **uchinchi bobi** “Yirtqich-o‘lja modeli uchun noma’lum chegarali aralash-ikki fazali masalalar” deb atalib, yirtqich va o‘lja munosabati dinamikasining ba’zi masalalari matematik modellarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

[1] Кружков С. Н. Нелинейные параболические уравнения с двумя независимыми переменными. Тр.ММО., Т.16. 1967. С.~329-346.

Uchinchi bobning birinchi paragrafida nochiziqli adveksion hadli Lesli-Gauer tipidagi “yirtqich-o‘lja” modeli o‘rganiladi.

$Q=\{(t,x): 0<t\le T, 0<x<L\}$, $D=\{(t,x): 0<t\le T, 0<x<s(t)\}$ sohalarda quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $u(t,x)$, $v(t,x)$ va $s(t)$ funksiyalar topilsin:

$$u_t = u_{xx} + m_1 \cdot u \cdot u_x + u(1-u) - v\left(\frac{u}{u+m}\right), \quad (t,x)\in Q, \tag{22}$$

$$v_t = dv_{xx} + m_2 \cdot v \cdot v_x + kv\left(1-\frac{bv+p}{u+a}\right), \quad (t,x)\in D, \tag{23}$$

$$u(0,x)=u_0(x), \quad 0\le x\le L, \quad v(0,x)=v_0(x), \quad 0\le x\le s_0=s(0) \tag{24}$$

$$u_x(t,0)=v_x(t,0)=u(t,L)=0, \ 0\le t\le T, v(t,x)=0, s(t)\le x\le L, \tag{25}$$

$$\dot{s}(t)=-\mu v_x(t,s(t)), \ 0\le t\le T, \tag{26}$$

bu yerda $s(t)$ – noma’lum chegara bo‘lib, $v(t,x)$ funksiya bilan birga aniqlanadi. s_0, μ, m, p, m_1, m_2, d, a va b - musbat o‘zgarmaslar.

Aprior baholar

9-teorema. *$u(t,x)$, $v(t,x)$, $s(t)$ funksiyalar* (22)-(26) *masalaning yechimi bo‘lsin. U holda* $0<u(t,x)\le \max\{1, \| u_0 \|_\infty\} = M_1$, $(t,x)\in \bar{Q}_T$,

$$0<v(t,x)\le \{M_1+a, \| v_0 \|_\infty\} = M_2, \quad (t,x)\in \bar{D}_T, \ 0<\dot{s}(t)\le \mu N = M_3, \quad t>0,$$

Quyidagi tasdiq masala bilan bog‘liq taqqoslash prinsipini ifodalaydi. Berilgan funksiyalar jufti $\underline{U}=(\underline{u},\underline{v})$, $\bar{U}=(\bar{u},\bar{v})$ uchun

$$[\underline{U},\bar{U}]=\{U:=(u,v)\in[C([0,T]\times[0,\infty))]^2 : (\underline{u},\underline{v})\le(u,v)\le(\bar{u},\bar{v})\}$$

